

O'zbekiston Prezidenti Ostona shahriga keldi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan Qozog'iston poytaxtiga keldi.

Aeroportda davlatimiz rahbarini Qozog'iston Bosh vaziri Alixan Smailov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Bugun Ostona birinchi "Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi" sammiti bo'lib o'tadi. Uning kun tartibidan mintaqamiz mamlakatlari va Yevroittifoq o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish masalalari o'rin olgan.



Manba